Hamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1392
Mitilayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	
TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	



XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELI.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIJ TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Qudratov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна, Махмудова Маяна Азатовна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
REKLAMA XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTULARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	



BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivaxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	
SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	



MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улугбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI.....	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	
KORXONA FOYDASI VA UNING RAQOBATBARDOSH NARX SIYOSATINI MAKSIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	1748
Axmadjonov Murodjon Axadjon o'g'li	
DEVELOPMENT PRIORITIES FOR THE FRUIT AND VEGETABLE SECTOR IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S FOOD SECURITY POLICY	1754
Nazarova Munavvar Soatmurod qizi	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA HR MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1761
Xamroyeva Kumush Alisherovna	
QURILISH SANOATIDA BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI.....	1768
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
TURISTIK DESTINATSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	1772
Bekberganov Izzat Hurmat o'g'li	
TRANSPORT XIZMATLARI BOZORI TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI	1775
Jo'rayeva Shahzoda Farhod qizi	
O'ZBEKISTONDA QURILISH MAXSULOTLARI ISHLAB CHIQUARADIGAN KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI TAHLILI	1781
Yusufova Laylo G'ayrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH TENDENSIYALARI.....	1788
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
PR-BO'LIMI FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TARKIBIY-FUNKTSIONAL YONDASHUVLARI.....	1792
Ergasheva Fotimaxon Ibragimovna	



TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS TENDENSIYALARI	1797
Xujakulova Odina Valijonovna	
DAVLATNING IQTISODIY MUVOZANAT VA BARQAROR RIVOJLANISHDAGI ROLI.....	1805
Uzoqov Bekzod Bozor o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MAHALLIY MODA BRENDINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	1810
Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna	
DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE IN UZBEKISTAN	1817
Sadinova Maqsuda Azamjonovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI	1824
Raxmonov Bekzod Sharibjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1832
Djurayev Laziz Tursunboyevich	
TA'LIM TASHKIOTLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETINGNING ROLI	1836
Raximov Faxriddin Shavkatovich, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
TURIZM INDUSTRIYASI VA TURIZM INFRATUZILMASINING MOHIYATI HAMDA TARKIBIY QISMLARI	1844
Mo'minova Mavjuda Sharifovna	
МОДЕРНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОЙ ПОЛИТИКИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1849
Бозорова Озода Рахимовна	
EKSPORT FAOLIYATINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	1854
To'rayeva Yulduz Shamsiddin qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	1859
Tulyaganova Aziza	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTISIYALARNI YO'NALTIRISHDA QULAY INVESTISION MUHITDAN OQILONA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	1864
Xikmatov Xayrullaxon Maxmurxonovich, Bo'riyev Lochinbek Ortiqbopoyevich	
O'ZBEKISTONDAGI KLASSTERLARNING FAOLIYATI TO'G'RSIDA	1870
Azimova Feruza Payziyevna, Yuldashev Samad Normo'minovich	
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ КАК СТРАТЕГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ КОМПАНИИ	1875
Алиева Сусанна	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR JORIY AKTIVLAR TAHLILINING NAZARIY KONSEPSIYASI VA METODOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	1881
Nurmanov U.A.	
ALOQA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA INNOVATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1887
Shirinova G.X.	
XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1893
Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RIVOJLANISHI: 2017-2025-YILLAR DINAMIKASI TAHLILI	1900
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgazievich, Allamberganova Nargiza Kuanishbayevna, Turg'anbayeva Ramiza Tolibayevna	
ГЛОБАЛЬНЫЕ И ЛОКАЛЬНЫЕ ТРЕНДЫ ИННОВАЦИЙ В СФЕРЕ БАНКОВСКИХ УСЛУГ	1907
Махамаджанов Мухаммадали Музаффарович	
YO'LOVCHI TRANSPORT XIZMATLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1912
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Aktamov Abduvali Abdug'ani o'g'li	
BUXORO VILOYATIDA HUNARMANDCHILIK SOHASINING RIVOJLANISHI: EKONOMETRIK TAHLIL VA PROGNOZ (2014-2030-YILLAR)	1917
A.F. Ergasheva	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI.....	1930
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	



OLIY TA'LIM TIZIMIDA XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASALAR RAQOBATBORDOSHLIGINI OSHIRISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	1937
Begmatova Ziyoda Zaxidjon qizi	
RISKNI SUG'URTALASH ORQALI KORXONA FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1942
Maxmudov Shoxruxbek Asror o'g'li	
GLOBAL STANDARDS AND PRACTICES IN MEDICAL TOURISM: AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CURRENT TRENDS, CHALLENGES, AND REGULATORY FRAMEWORKS.....	1947
Adilova Diyora Ulugbekovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ АКВАКУЛЬТУРНЫМ СЕКТОРОМ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ И ТЕХНОЛОГИЙ ОПТИМИЗАЦИОННОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ.....	1952
Мырзатаев Саламат Муратбаевич, Аскарлов Бахтияр Мамытович	
MINTAQAVIY SUG'URTA BOZORINING MINTAQANING IJTIMOY-IQTISODIY HOLATIGA TA'SIRI	1958
Xoltoyev Mirusmon Mirxamit o'g'li	
BANK XIZMATLARINING RAQAMLASHTIRILISHI DARAJASI VA FINTECH PLATFORMALARINING ROLI	1963
Abdullayeva Dilfuza Atajan qizi	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI.....	1969
Jo'rayev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
FARMATSEVTIKA FAOLIYATINING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI TAHLILI	1972
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ECOLOGICAL ENTERPRISES' ACTIVITY	1976
D. Meiliyeva	
BUDJET MABLAG'LARINING BIR QISMINI JAMOATCHILIK FIKRI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISLOHOTLARI	1979
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
MINTAQ IQTISODIYOTDA SANOAT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TUZILMALARINING IXTISOSLASHUV TENDENSIYALARI.....	1987
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
MINTAQ IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA LOGISTIK XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RESURLARIDAN FOYDALANISH TAHLILI.....	1997
Xalimov Javlonbek Shaxriyorovich	
SOLIQ TIZIMIDA TOVAR TRANSPORT YUK XATLARI RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	2004
Muxammadov Nodir Karimovich	
НЕПАРАМЕТРИЧЕСКОЕ ОЦЕНИВАНИЕ ИНТЕРВАЛАМИ ФИКСИРОВАННОЙ ШИРИНЫ: АСИМПТОТИЧЕСКАЯ СОСТОЯТЕЛЬНОСТЬ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ	2010
Турсунов Гафур Таирович	
INNOVATION RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI VA TAMOYILLARI	2017
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
ZARAFSHON MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA UNING HUDUDIY MUTANOSIBLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR TAHLILI	2022
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA STARTAP VA TADBIRKORLIK EKOTIZIMINING ROLI	2033
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDA PAXTA XOMASHYOSINING SHIKASTLANISHINI ANIQLOVCHI QURILMANING MATEMATIK MODEL ASOSIDA TAJRIBALAR O'TKAZISH.....	2037
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI FOND BOZORI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	2042
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
ПОНЯТИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ И ИХ СОСТОЯНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	2048
Халимов Шахбоз Халимович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2053
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	2057
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI KAPITAL JAMG'ARILISHINI BAHOLASH.....	2062
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI KAPITAL JAMG'ARILISHINI BAHOLASH

Djalilov Dostonbek Abduazizovich

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti Loyiha rahbari

Email: djalilov.dostonbek@mail.ru

ORCID: 0000-0001-8151-9688

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholandi. Bunda kapital jamg'arilishining boshlang'ich qiymati muvozanat yondashuvi asosida hisoblandi. Xorijiy tajribalar hamda O'zbekiston iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kapital jamg'arilishining keyingi davrlardagi qiymatlari amortizatsiya koeffitsiyentining 7 % darajada o'zgarmas bo'lishi asosida hisoblandi. Tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotida kapital jamg'arilishining keskin oshishi kuzatilib, uning iqtisodiy o'sishning asosiy qismini ta'minlaganligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: kapital jamg'arilishi, amortizatsiya, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, muvozanat yondashuvi, kapitalning YAIMga nisbati.

Abstract. In this article, capital stock in the Uzbek economy was assessed using the perpetual inventory method. The initial capital stock value was estimated using the steady-state approach. Taking into account foreign experience and the peculiarities of Uzbekistan's economy, subsequent capital stock values were determined based on the assumption of a constant depreciation rate of 7%. The analysis showed that Uzbekistan's economy has seen a sharp increase in capital accumulation, which has provided the bulk of economic growth.

Key words: capital accumulation, depreciation, fixed capital investment, equilibrium approach.

Аннотация. В данной статье накопление капитала в экономике Узбекистана было оценено на основе метода постоянной инвентаризации. Начальная значения капитала рассчитана с использованием метода балансового подхода. Учитывая зарубежный опыт и особенности экономики Узбекистана, последующие значения капитала определены исходя из предположения о постоянной норме амортизации в размере 7 %. По результатам анализа установлено, что в экономике Узбекистана наблюдается резкий рост накопления капитала, который обеспечил основную часть экономического роста.

Ключевые слова: накопление капитала, амортизация, инвестиции в основной капитал, равновесный подход.

KIRISH

Kapital jamg'arilishi iqtisodiy o'sishning neoklassik modellarida asosiy komponentlardan biri bo'lib, iqtisodiy o'sish hamda potensial YAIMni baholashda muhim o'zgaruvchi hisoblanadi. Kapital jamg'arilishini to'g'ridan-to'g'ri kuzatib bo'lmaganligi sababli uni baholashning bir nechta usullari mavjud.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish va unga ta'sir qiluvchi omillarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlash, shuningdek uzoq muddatli iqtisodiy o'sish trendini belgilash uchun O'zbekiston iqtisodiyotidagi kapital jamg'arilishini aniqlash zarur.

Kapital jamg'arilishining aniq qiymatini aniqlash deyarli imkonsiz bo'lishining asosiy sababi kapital egalari tomonidan kapitalning haqiqiy qiymati to'liq ma'lum emasligi hamda real amortizatsiya normasini bevosita kuzatib bo'lmazligi bilan bog'liq. Shu sababli tadqiqotlarda kapital jamg'arilishini baholashdagi mavjud muammoni bartaraf etish uchun bir nechta taxminlarga tayaniladi.

Ko'plab tadqiqotlarda kapital jamg'arilishi doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholanadi. Ushbu usul iqtisodiy model bo'lib, kapital jamg'arilishini asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar asosida aniqlashga



imkon beradi. Mazkur yondashuvda kapital jamg'arilishi kapitalning taxminiy xizmat qilish muddati davomida oldingi davrlardagi aktivlar xaridlarining jamlanishi orqali baholanadi. Shuningdek, doimiy inventarizatsiya usuliga ko'ra, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar oqimi va geometrik amortizatsiya koeffitsiyenti asosida ham kapital jamg'arilishini baholash mumkin. Ushbu usul bo'yicha kapital jamg'arilishini baholashda asosiy ma'lumot manbalari sifatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, asosiy kapitalning xizmat qilish muddati yoki amortizatsiya koeffitsiyenti xizmat qiladi.

Amaliyotda kapitalning xizmat qilish muddatini aniq baholash juda murakkab, chunki kapitaldan foydalanish muddati bo'yicha ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri aniqlash imkoniyati mavjud emas. Shu bois kapitalning xizmat qilish muddati ma'muriy ma'lumotlar va ekspert xulosalari asosida aniqlanadi.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishini baholash jarayonida kapitalning boshlang'ich qiymati va amortizatsiya koeffitsiyentini aniqlash zarurati yuzaga keladi. Shu sababli, boshqa mamlakatlar tajribasiga tayangan holda baholash amalga oshiriladi hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xos bo'lgan amortizatsiya koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Kapitalning boshlang'ich qiymati muvozanat yondashuvi va kapitalni YAIMga nisbati orqali aniqlanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kapital jamg'arilishini doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholashda amortizatsiya koeffitsiyentining 6–8 % oralig'ida bo'lishi maqbul deb topildi. Kapital jamg'arilishining boshlang'ich qiymati ikki xil yondashuv asosida baholangan bo'lib, ushbu qiymatlar o'rtasidagi farq yuqori emasligi hamda kuzatuv davrining oxiriga kelib mazkur tafovutlarning sezilarli darajada qisqarganligi aniqlandi. Bundan tashqari, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 2017-yildan boshlab yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lishi kapital jamg'arilishining o'rtacha 1.9 barobarga oshishiga ta'sir ko'rsatdi. Natijada kapitalning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi oshdi, umumiy omillar samaradorligining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi esa nisbatan kamaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kapital jamg'arilishini baholashdagi muammolardan kelib chiqqan holda bir qator tadqiqotlarda kapital jamg'arilishi bazalari shakllantirilgan. Neru va Dxareshvar tomonidan 93 ta mamlakat uchun kapital bazasi shakllantirilgan [2]. Berlemann va Vesselxoft tadqiqotida 103 ta mamlakat bo'yicha 1979-2010-yillar oralig'ida kapital jamg'arilishi baholangan [2]. Fenstra tadqiqotida 1970-2010-yillar uchun doimiy inventarizatsiya usuli asosida kapital jamg'arilishi hisoblab chiqilgan [4]. Derbishir tadqiqotida Yevropa mamlakatlari iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi baholangan [5]. Bo'rms tadqiqotida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi baholangan bo'lib, unda kapitalning boshlang'ich qiymati kapitalni YAIMga nisbati asosida aniqlangan [6].

Alohida mamlakatlar kesimida Gruzija iqtisodiyoti hamda Xitoy iqtisodiyotining sektorlari uchun kapital jamg'arilishi doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholangan [7,8]. Aksariyat tadqiqotlarda O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi baholanmagan. Biroq Fenstra tadqiqotida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi baholangan bo'lsa-da, unda kapital jamg'arilishining qiymati nisbatan yuqori baholangan. Mazkur tadqiqotda aniqlangan kapital jamg'arilishi hajmi rivojlangan mamlakatlar kapital jamg'arilishi darajasiga teng deb hisoblangan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada inobatga olinmagan. Shu sababli, O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishini yuqorida keltirilgan tadqiqotlar hamda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda doimiy inventarizatsiya usuli asosida aniqlash dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Kapital jamg'arilishini doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholashda o'tgan davrdagi kapitalning amortizatsiyadan keyingi qolgan qiymatiga asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni qo'shish orqali quyida keltirilgan tenglama [1] asosida kapital jamg'arilishining qiymati aniqlanadi. Shu bilan birga, kapital jamg'arilishini asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar yig'indisi orqali baholash imkonini yaratish maqsadida ushbu investitsiyalar 2016-yil narxlariga keltiriladi.

$$\hat{E}_t = I_t + (1 - \delta) \cdot K_{t-1} \quad [1]$$

Bunda: K_t — kapital jamg'arilishi; I_t — asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar; δ — amortizatsiya koeffitsiyenti.

Kapitalning boshlang'ich qiymatini kapitalning xizmat qilish muddati asosida aniqlash uchun asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'rtacha 40-50 yillik ma'lumotlari talab etiladi. Amortizatsiya koeffitsiyenti 7% deb taxmin qilingan taqdirda, 1990-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taxminan



10% qismi 2021-yilda ham foydalanishda bo'lishi kerak bo'ladi. Shu sababli, mazkur tadqiqotda kapitalning boshlang'ich qiymatini kapital jamg'arilishini muvozanat yondashuvi asosida baholash rejalashtirilgan bo'lib, bunda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning uzoq muddatli o'sish sur'ati (β), amortizatsiya koeffitsiyenti (δ) hamda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning boshlang'ich qiymati (I_0) zarur hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning boshlang'ich qiymati sifatida 1997-yildagi qiymat qabul qilinadi va kapital jamg'arilishining 1997-yildagi darajasi quyida keltirilgan [2] tenglama asosida baholanadi.

Muvozanat yondashuvida iqtisodiy o'sish muvozanat nuqtasida joylashgan, degan taxmin qabul qilinadi. Ushbu taxmin asosida (1) formula orqali kapital jamg'arilishining o'sish sur'ati quyidagicha aniqlanadi.

$$g_t = \frac{K_t - K_{t-1}}{K_t} = \frac{I_t}{K_t} - \delta \quad (2)$$

Bunda: g_t - kapital jamg'arilishining o'sishi. Formula (2) dan kelib chiqqan holda kapitalning boshlang'ich qiymati quyidagi formula (3) asosida baholanadi.

$$\hat{E}_{t-1} = \frac{I_t}{\delta + \beta} \quad (3)$$

Harberger tadqiqotida investitsiyalarning dastlabki 3 yillik o'rtacha o'sish sur'atidan foydalanilgan, Neru va Dxareshvar tadqiqotida 24 yillik o'rtacha o'sish sur'ati qo'llanilgan, Kaselli esa 10 yildan 20 yilgacha bo'lgan davr uchun o'rtacha o'sish sur'atlaridan foydalangan. Mazkur tadqiqotda (β) ko'rsatkichi sifatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 1997-2006-yillardagi o'sish sur'atlarining o'rtacha qiymati qabul qilinadi.


Amortizatsiya koeffitsiyenti rivojlanayotgan mamlakatlar uchun odatda 4–8 % oralig'ida bo'lishi taklif etiladi. Bo'rs tadqiqotida kapital jamg'arilishini baholash jarayonida rivojlangan mamlakatlar uchun amortizatsiya koeffitsiyenti 6–8 % oralig'ida qabul qilingan. Gruziya iqtisodiyotida amortizatsiya koeffitsiyenti asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibiga qarab o'rtacha 11 %ni tashkil qilishi baholangan [8]. Fenstra tadqiqotida O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishi doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholanib, amortizatsiya koeffitsiyenti 4 % darajada belgilangan. Bo'rs tadqiqotida Qozoqiston, Armaniston va Ozarbayjon mamlakatlari uchun amortizatsiya koeffitsiyentining 6–8 % oralig'ida bo'lishi taxmin qilingan. O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar toifasiga kirganligi sababli mazkur tadqiqotda amortizatsiya koeffitsiyenti 6–8 % oralig'ida qabul qilinib, kapital jamg'arilishi baholanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar texnologik tarkibiga ko'ra kapital jamg'arilishining asosiy manbai hisoblanadi. Shunga ko'ra, 1997–2004-yillar oralig'ida iqtisodiyotda yangi asbob-uskuna va jihozlarga kiritilgan investitsiyalarning ulushi sezilarli darajada oshgani, qurilish-montaj ishlarining ulushi esa kamaygani kuzatiladi. 2005–2007-yillarda esa qurilish-montaj ishlariga kiritilgan investitsiyalarning ulushi ortgan. 2008-yilda asbob-uskuna va jihozlarga kiritilgan investitsiyalarning ulushi 2007-yilga nisbatan sezilarli darajada oshib, 43,9 %ni tashkil qildi. 2009–2016-yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarda boshqa kapital ishlari va sarflarning ulushi oshib, asbob-uskuna va jihozlarning ulushi kamaydi. 2017–2024-yillarda esa asbob-uskunalariga kiritilgan investitsiyalarning ulushi ko'paygani hamda boshqa kapital ishlari va sarflarga o'zlashtirilgan investitsiyalarning ulushi kamaygani kuzatildi [11].

2018–2020-yillarda asbob-uskunalariga kiritilgan investitsiyalarning ulushi 43,8 %dan 52,1 %gacha oshgani aniqlandi. Shundan, iqtisodiyotda samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi investitsiyalar tarkibida AKT uskunalariga yo'naltirilgan investitsiyalarning ulushi 2019–2021-yillarda o'rtacha 4,7 %ni tashkil etdi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar, kompyuter dasturiy ta'minoti hamda ma'lumotlar bazalariga o'zlashtirilgan investitsiyalarning jami o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 0,4 %ni tashkil qilgan [11].


Mazkur tadqiqotda kapital jamg'arilishining baholangan natijalariga ko'ra, 1997-yilda kapital jamg'arilishining qiymati 2024-yil narxlarida 185 trln so'mni tashkil etdi. Kapital jamg'arilishining qiymati past amortizatsiya darajasi sharoitida nisbatan yuqori hajmga ega bo'lib, amortizatsiya koeffitsiyentining barcha davrlarda o'zgarmas qabul qilingani hamda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'lgani natijasida baholangan kapital jamg'arilishi umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Shu sababli, kapital jamg'arilishi 2007–2009 va 2017–2019-yillarda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan davrlarda sezilarli darajada oshgan. Xususan, kapital jamg'arilishi 2009-yilda 2006-yilga nisbatan o'rtacha 1,4 barobarga, 2021-yilda esa 2016-yilga nisbatan 1,91 barobarga oshgani aniqlandi. 2024-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmining ortishi natijasida kapital jamg'arilishi 2643 trln so'mga yetdi (1-rasm).



1-rasm. Kapital jamg'arilishini baholangan qiymatlari, 2024-yil narxlarida (trln. so'mda)¹

Kapitalning eskirish hajmi 7 % amortizatsiya koeffitsiyenti asosida aniqlanib, uning qiymati asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi bilan solishtirildi. Natijada, 1997–2024-yillar davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi kapitalning eskirish hajmidan yuqori bo'lgani aniqlandi.

Kapital iqtisodiy o'sish omili sifatida uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniqlashda Kobb–Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalanish mumkin. O'zbekistonda iqtisodiy o'sish omillarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini aniqlash jarayonida Jahon banki tomonidan O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapitalning YAIMdagi ulushi 0,3 ga teng deb baholangan [8]. Mazkur tadqiqotda ham O'zbekiston iqtisodiyoti uchun iqtisodiy o'sish omillarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini aniqlashda kapitalning YAIMdagi ulushi 0,3 ga teng deb qabul qilindi. Kapital jamg'arilishining turli amortizatsiya koeffitsiyentlari asosida aniqlangan qiymatlari o'rtasida sezilarli farq kuzatilmaganligi sababli, iqtisodiy o'sishga kapital jamg'arilishining qo'shgan hissasini aniqlashda 7 % amortizatsiya koeffitsiyenti asosida hisoblangan kapital jamg'arilishi qiymatlaridan foydalanildi (2-rasm).



2-rasm. Ishlab chiqarish omillarini iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi, foiz band²

1 Muallif hisob-kitobi.

2 Muallif hisob-kitobi



Aniqlangan natijalarga ko'ra, ishlab chiqarish omillarining 1998–2016-yillarda iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi musbat bo'lgan, ammo 2017-yildan boshlab ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy o'sish tendensiyalari o'zgarganligi natijasida iqtisodiy o'sish omillarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasida o'zgarishlar yuzaga kelgan. Xususan, 2017-yilda yalpi omillar samaradorligining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi -0.06 f.p.ni tashkil etdi. 2018-yilda esa ishchi kuchining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi -4.15 f.b.ni, keyingi yilda esa umumiy samaradorlik ulushi -4.25 f.p.ni tashkil etdi. Shu bilan birga, kuzatuv davrida kapitalning iqtisodiy o'sishga doimiy ravishda musbat ulushga ega bo'lishi va kuzatuv davrida o'tacha iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi 4.0 f.b.ni tashkil etishi kapitalning O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning asosiy omili ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqotda aniqlangan natijalarga ko'ra, O'zbekiston uchun baholangan kapital jamg'arilishi Fenstra tadqiqotida baholangan qiymatlardan farq qildi. Fenstra tadqiqotida amortizatsiya koeffitsiyentining doimiy 4 % darajada belgilanishi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun kapital jamg'arilishining yuqori baholanishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasiga ko'ra, 2017–2024-yillarda kapital jamg'arilishining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi ortib borishi natijasida yalpi omillar samaradorligining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi kamayib borishiga ta'sir qilgani aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotda aniqlangan natijalarga ko'ra, kapitalni doimiy inventarizatsiya usuli asosida baholashda foydalanilgan kapitalning boshlang'ich qiymatini aniqlashda qo'llanilgan ikkita yondashuvning natijalari bir-biridan yuqori darajada farq qilmaganligi aniqlandi. Bu holat baholangan kapital jamg'arilishining O'zbekiston iqtisodiyoti uchun mos ekanligini ifodalaydi. Turli amortizatsiya koeffitsiyentlari asosida aniqlangan kapital amortizatsiyasi hajmining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidan kam bo'lishi O'zbekiston iqtisodiyotida kapital jamg'arilishi jarayoni davom etayotganligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish omillarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasiga ko'ra, kapital iqtisodiy o'sishning asosiy omili ekanligi aniqlandi. Biroq COVID-19 pandemiyasi sababli umumiy samaradorlikning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hisssasi kamaygani aniqlandi. Shu bilan birga, 2019–2024-yillarda kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning mos ravishda 4.7 va 12.7 %i IKT va innovatsiyalarga yo'naltirilgan. Bular esa yalpi omillar samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Shu sababli, O'zbekistonda uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- amortizatsiya koeffitsiyentining asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidan kam bo'lishi sharoitida iqtisodiyotda kapital jamg'arilishini oshirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash;
- umumiy samaradorlikning kamayishiga asosiy sabab bo'lgan IKT va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish orqali umumiy samaradorlikning iqtisodiy o'sishga ta'sirini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dey-Chowdhury, S. (2008). Methods explained: Perpetual inventory method (PIM). *Economic & Labour Market Review*, 2(9), 48-52.
2. Nehru, V., & Dhareshwar, A. (1993). Sources, methodology and results. *Revista de análisis económico*, 8(1), 37-59.
3. Berlemann, M., & Wesselhöft, J. E. (2014). Estimating aggregate capital stocks using the perpetual inventory method. *Review of Economics*, 65(1), 1-34.
4. Feenstra, R. C., Inklaar, R., & Timmer, M. P. (2015). The next generation of the Penn World Table. *American economic review*, 105(10), 3150-82.
5. Derbyshire, J., Gardiner, B., & Waights, S. (2013). Estimating the capital stock for the NUTS2 regions of the EU27. *Applied economics*, 45(9), 1133-1149.
6. Herd, R. (2020). Estimating Capital Formation and Capital Stock by Economic Sector in China.
7. Labadze, L., Babych, Y., & Gabriadze, I. (2020). Estimating capital stock and return on capital for Georgia.
8. World Bank. (2016). Systematic country diagnostic for Uzbekistan.
9. Burns, A. (2016). Potential Output in Asia: Some Forward-Looking Scenarios. *Asian Development Review*, 33(2), 28-55.
10. [www.stat.uz](https://stat.uz) O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
